

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



I
SON

2024

Elektron ilmiy-ommabop jurnal

123-456-7890
@reallygreatsite
www.reallygreatsite.com



**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2024-yil
1-SON**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY'ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Bekmurodov Adxam Sharipovich, i.f.d., professor
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, i.f.n., dotsent
Qurbonov Samandar Pulatovich, PhD, dotsent
Ashurzoda Luiza Muxtarovna, PhD, dotsent
Ismailova Nilufar Sobitdjanovna, i.f.n.
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna,
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li,
Xolmatov Muhridin Mo'min o'g'li,

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич, <i>«Человеческий капитал в условиях цифровизации экономики».....</i>	4
Umurzakov Bahodir Xamidovich, <i>O'zbekistonda demografik rivojlanishning ta'lim tizimiga ta'sir etish jihatlari.....</i>	20
Usmanov Anvar Saidmahmudovich, Bahriddinova Muazzam Azam qizi, <i>Dunyodagi demografik vaziyat va uning rivojlanish istiqbollari.....</i>	34
Зокирова Нодира Каландаровна, Шакаров Зафар Гаффорович, <i>Человеческий капитал в условиях внедрения искусственного интеллекта: вызовы и перспективы.....</i>	46
Мамадалиева Хафиза Холдаровна, <i>Авлодлараро трансферлар ўзбекистон иқтисодиётини ўзгартириш шароитида камбағалликни бартараф этиш воситаси сифатида.....</i>	62
Юлдашев Нурбек Нормуродович, <i>Аҳолининг яқка тартибдаги тадбиркорлик (ЯТТ)ни ташкил этиши ва ўзини ўзи банд қилишининг яширин иқтисодиётни қисқаришига таъсири.....</i>	79
Ташбаева Рано Гайбуллаевна, <i>Многомерная бедность как индикатор социального благополучия населения Республики Узбекистан.....</i>	89
Камилова Наргиза Абдукахоровна, <i>Конкурентоспособность стран в мировом хозяйстве в условиях цифровизации экономики.....</i>	98
Rozmatova Umida Yuldashevna, <i>Nomoddiy aktivlar hisobini shakllantirish.....</i>	105
Mirzayeva Matluba G'aybulla qizi, <i>Banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali aholini bandligini ta'minlash.....</i>	112
Yunusova Ug'iloy Bolqiboy kizi, <i>The impact of increasing the competitiveness of tourist areas on the level of employment.....</i>	121
Chinorova Shahodat Mansur qizi, <i>The role of higher education institutions in enhancing the attractiveness of human capital.....</i>	130
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir ugli, <i>The use of digital tools in the management of migration processes.....</i>	136
Asqarova Muhabbat Ibraximovna, <i>O'zbekistonda demografik jarayonlarning hududiy tahlili.....</i>	143

NOMODDIY AKTIVLAR HISOBINI SHAKLLANTIRISH

*Rozmatova Umida Yuldashевна -
Moliyaviy tahlil kafedrası katta o'qituvchisi
TDIU mustaqil izlanuvchisi*

Annotatsiya. Maqolada buxgalteriya sohasida nomoddiy aktivlar hisobini takomillashtirish yuzasidan tadqiqot olib borilgan. Muallif tomonidan amalda mavjud kamchiliklarni o'rganib, ularni samarali hal qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar berib o'tilgan. Shu bilan birga milliy standartlarni xalqarolashtirish bo'yicha transformatsion tahlillar amalga oshirilgan

Kalit so'zlar: aktivlar, BHMS, xo'jalik yurituvchi subyektlar, innovatsiya, texnologik patentlar

ФОРМИРОВАНИЕ СЧЕТОВ НЕМАТЕРИАЛЬНЫХ АКТИВОВ

*Розматова Умида Юлдашевна-
Преподаватель кафедры финансового анализа
Независимый исследователь в TSIU*

Аннотация. В статье проведено исследование по совершенствованию учета нематериальных активов в сфере бухгалтерского учета. Автор изучил недостатки на практике и внес предложения и рекомендации по их эффективному решению. Одновременно был проведен трансформационный анализ интернационализации национальных стандартов.

Ключевые слова: активы, НСБА, хозяйствующие субъекты, инновации, технологические патенты.

FORMATION OF INTANGIBLE ASSETS ACCOUNT

*Rozmatova Umida Yuldashевна-
Lecturer of the Department of Financial Analysis
Independent researcher at TSIU*

Abstract. In the article, a study was conducted on the improvement of accounting of intangible assets in the field of accounting. The author studied the shortcomings in practice and made suggestions and recommendations for their effective solution. At the same time, transformational analyzes of the internationalization of national standards were carried out

Key words: assets, NSA , business entities, innovation, technological patents

Kirish. Nomoddiy aktivlar muhim iqtisodiy resurs bo'lib, ular korxonaning raqobatbardoshligini, innovatsiya salohiyatini va bozordagi o'rnini aniqlaydi. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish va baholash korxonalar uchun muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bozor munosabatlariga o'tish sharoitida ishlab chiqarishni raqobatbardoshligini oshiruvchi, maxsulot sifatini yaxshilovchi, maksimal foyda olish imkoniyatini hamda ishlab chiqarish jarayonining samaradorligini ta'minlovchi omil sifatida korxonalar faoliyatida asosiy vositalarning roli oshib bormoqda. Korxonalar faoliyatini pirovard natijasi qanday mehnat vositalarini ishlatilishga, ularni xolatiga, texnika taraqqiyoti darajasiga mosligiga bevosita bog'liq. Korxonalarda ishlab chiqarishni ta'minlashda nomoddiy aktivlar korxonalar rentabelligini oshirish, resurslarni investitsiyaga yo'naltirish va moliyaviy holatni mustahkamlashda ahamiyatlidir.

Adabiyotlar sharhi. “Ann M. Leech (2022): Leech o'zining "Nomoddiy aktivlarni baholash: amaliy qo'llanma" (Intangible Asset Valuation: A Practical Guide) kitobida nomoddiy aktivlarni baholashning turli usullarini batafsil o'rganadi. Ularning fikricha, nomoddiy aktivlarni baholashda daromad usuli, bozor usuli, xarajat usuli va boshqa usullarni qo'llash mumkin va bu usullar korxonalarining xarakteriga va nomoddiy aktivlarning turiga bog'liq”.

David J. Teece (2021): Teece o'zining "Nomoddiy aktivlar: iqtisodiy o'sish uchun strategiya" (Intangible Assets: Strategy for Economic Growth) kitobida nomoddiy aktivlarni iqtisodiy o'sishning asosiy omili deb hisoblaydi. Ularning fikricha, nomoddiy aktivlarni hisobga olish va boshqarish orqali korxonalar o'zlarining raqobatbardoshligini oshirish va yangi bozorlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin.

Bizning fikrimizcha ushbu ta'rifni quyidagicha bayon etish lozim “Asosiy vositalar - bu kelgusida iqtisodiy naf keltiradigan, korxonalar tomonidan uzoq muddat davomida xo'jalik faoliyatini yuritishda mahsulot ishlab chiqarish, ishlarni bajarish yoki xizmatlar ko'rsatish jarayonida yoxud ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish maqsadida foydalanish uchun tutib turiladigan moddiy aktivlar”.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Mamlakatimizda ham nomoddiy aktivlar hisobini tashkil qilish bir qancha huquqiy me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi. Bunda asosiy mezon sifatida 9-BHMS da batafsil keltirilgan. Bunga ko'ra pul oqimlari, investitsiya faoliyati, moliyaviy faoliyatlarni amalga

oshirishda nomoddiy aktivlardan foydalanish yaxshi samara beradi. Bunda xalqaro shartnomalar imzolash, texnologik transferlar, intellektual mulklarni ishga tushirish yoki patentlash orqali foydalanishga xizmat qiladi. Umumiy tahlil qiladigan bo'lsak nomoddiy aktivlar - tashkilot tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan mol-mulk obyektlaridir.

Aktivlarni buxgalteriya hisobiga nomoddiy aktivlar sifatida qabul qilishda bir vaqtning o'zida quyidagi shartlar bajarilishi kerak:

- a) moddiy-ashyoviy tuzilish (shakl)ga ega bo'lmasligi;
- b) aktivlardan mahsulot ishlab chiqarishda, ishlar bajarish yoki xizmatlar ko'rsatishda yoxud korxonaning ma'muriy va boshqa funksiyalari uchun uzoq muddat, ya'ni davomiyligi 12 oydan yuqori foydali xizmat muddati yoki agar u 12 oydan oshadigan bo'lsa, oddiy operatsion sikl mobaynida foydalanish.
- v) korxonada ushbu aktivni keyinchalik qayta sotishni mo'ljallanmaydi;
- g) ishonchlik, ya'ni korxonada aktiv va unga bo'lgan mutlaq huquqning mavjudligini tasdiqlovchi tegishli ravishda rasmiylashtirilgan hujjatlar (patentlar, guvohnomalar, boshqa muhofaza qiluvchi hujjatlar, patent, tovar belgisidan voz kechish (sotib olish) shartnomasi) ning mavjudligi;
- d) identifikatsiyalash imkoniyati. Quyidagi rasmda nomoddiy aktivlarning guruhlanishi batafsil yoritilgan



1-rasm. Nomoddiy aktivlarning guruhlanishi

Rasmda nomoddiy aktivlarning turli jihatlari va ularning tarkibiy qismlari aks ettirilgan. Demak Nomoddiy aktivlar:

1. Qiymatli resurslar va o'zlashtirilmaganlar: Bu nomoddiy aktivlar tarkibiga kiradigan asosiy elementlarni ko'rsatadi.

2. Mavjud miqdorlar to'g'risidagi ma'lumotlar: Bu ma'lumotlar, mijozlar soni, buyurtmalar soni va boshqa o'zlashtirilgan resurslarni bildiradi.

3. Savdo markasi va nufuzi: Korxonaning brend va nufuzi.

4. Yetkazib beruvchilar tarmog'i: Korxonaning xomashyo va boshqa resurslarni yetkazib beruvchi ta'minotchilar tarmog'i.

5. Intellektual salohiyat: Patentlar, litsenziyalar, nou-xau va boshqa intellektual mulk.

6. Standartlarga ega bo'lish: ISO standartlariga muvofiqlik va boshqa sertifikatlar.

7. Umumiy ma'naviy qadriyatlar va me'yorlar: Bu korxonaning ma'naviy qiymatlari va me'yorlarini aks ettiradi.

8. Iste'molchiga mo'ljal qilish: Korxonaning mahsuloti yoki xizmatlari iste'molchi ehtiyojlariga qanchalik mos kelishi.

9. Ishonchlilik: Korxonaning ishonchlilik darajasi.

10. Sifat: Korxonada mahsulotlarining sifati va standartlari.

11. Ko'nikmalar va rasmiylashtirilmagan bilimlar: Nomoddiy aktivlarning tajriba va bilimlar qismi.

12. Nou-xau: Korxonaning o'ziga xos texnologiyalar, usullar va bilimlar.

13. Vakolat sohasi: Korxonada xodimlarining malakasi va tajribasi.

14. Birlamchi va boshqaruv jarayonlari: Nomoddiy aktivlarni ta'minlovchi ichki jarayonlar.

15. Boshqaruv va nazorat: Korxonada ish jarayonlarining nazorat qilinishi va boshqarilishi.

16. Axborot ayriboshlash: Korxonada ichida va tashqarida axborot almashinuvi tizimi.

17. Boshqaruv axboroti: Korxonada faoliyatini boshqarish uchun zarur bo'lgan axborot.

18. Texnologiya: Nomoddiy aktivlarni ta'minlovchi texnologiyalar.

19. Boshqaruv va nazorat axborot ayriboshlash: Korxonada texnologiyalar yordamida boshqaruv va nazorat axborot ayriboshlash.

20. Nou-xau: Korxonaning o'ziga xos texnologiyalari.

Ko'rinib turibdiki nomoddiy aktivlarni barcha jihatlari hisobga olish va ularni rivojlantirish korxonaning muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega.

Biroq shunga qaramasdan nomoddiy aktivlarni hisobga olishda bir qator muammolar mavjud:

Birinchi baholash muammolari: Nomoddiy aktivlarni baholash qiyin, chunki ularning bozor qiymatini aniqlash murakkab.

Ikkinchidan hisobga olish standartlarining nomukammalligi: Xalqaro hisobga olish standartlari (MSFO) nomoddiy aktivlarni hisobga olishni to'liq tartibga solish uchun yetarlicha aniq emas.

Uchinchidan Hisobga olish ma'lumotlarining yetarli emasligi: Nomoddiy aktivlarni hisobga olish uchun yetarli ma'lumotlarning yetarli emasligi ham muammo tug'diradi. Ushbu muammolarni hal etishda quyidagicha yondashuv maqsadga muvofiqdir:

Nomoddiy aktivlarni hisobga olishni takomillashtirish uchun quyidagi usullarni qo'llash mumkin:

- Hisobga olish standartlarini takomillashtirish: MSFO va milliy hisobga olish standartlarini nomoddiy aktivlarni hisobga olish uchun mukammal qilish kerak.

- Baholash usullarini takomillashtirish: Nomoddiy aktivlarni baholash uchun yangi va takomillashtirilgan usullarni qo'llash kerak.

- Ma'lumotlar bazasini takomillashtirish: Nomoddiy aktivlarni hisobga olish uchun yetarli ma'lumotlarni to'plash va saqlash tizimini takomillashtirish kerak. Qolaversa nomoddiy aktivlarni milliy standartlardan va xalqaro standartlarga transformatsiya qilish ham muhim sanaladi. Quyida keltirilgan ma'lumotlar asosida ushbu jarayon ko'rsatilgan (1.2-rasmga qarang)

Hujjat	7-BHMS bo'yicha ma'lumotlar	Transformatsion yozishmalar				MHHS bo'yicha ma'lumotlar
Buxgalteriya balansi	B	Yo ₁	Yo ₂	...	Yon	$B + \sum \dot{E}_i$
Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot	M	Yo ₁	Yo ₂	...	Yon	$M + \sum \dot{E}_i$

1.2-rasm. Nomoddiy aktivlarning transformatsion ish jadvali

Bu jadvalda 7-BHMS va MHHS bo'yicha moliyaviy hisob-kitoblardagi transformatsiya qoidalari keltirilgan. Bunda:

7-BHMS (7-Buxgalteriya Moliyaviy Hisob Standartlari)

- "B" - Buxgalteriya balansi (balans) bo'yicha ma'lumotlar

- "M" - Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot bo'yicha ma'lumotlar

MHHS (Moliyaviy Hisob Standartlari)

- "B + $\sum \dot{E}_i$ " - Buxgalteriya balansi + transformatsiya qilingan barcha qiymatlarning yig'indisi

- "M + $\sum \dot{E}_i$ " - Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot + transformatsiya qilingan barcha qiymatlarning yig'indisi

Transformatsiya qoidalarini:

- "Yo₁, Yo₂... Yon" - 7-BHMSdan MHHSga o'tkazishdagi transformatsiya qoidalarini bildiradi.

- Ma'lumotlarni 7-BHMS dan MHHS ga o'tkazishda hisob-kitoblarni yengillashtirish uchun ma'lumotlarni transformatsiya qilish zarur. Ushbu jadvaldagi ma'lumotlar, xorijiy moliyaviy hisobotlarni mahalliy hisobga olish standartlariga mos keltirish uchun qo'llaniladi.

Xulosa va takliflar. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish korxonalarining moliyaviy holatini to'g'ri baholashga, investitsiyalarni jalb qilishga va ularning raqobat bardoshligini oshirishga yordam beradi. Hisobga olish standartlarini takomillashtirish, baholash usullarini takomillashtirish va ma'lumotlar bazasini takomillashtirish nomoddiy aktivlarni hisobga olishni takomillashtirishga hissa qo'shadi. Nomoddiy aktivlarni hisobga olish bugungi kundagi globallashuv va texnologik rivojlanish jarayonida korxonalarining muvaffaqiyati uchun muhim ahamiyatga ega. Shulardan kelib chiqib, quyidagicha takliflarni amaliyotda qo'llash maqsadga muvofiq deb o'layman. Nomoddiy aktivlar hisobini shakllantirish bo'yicha quyidagi 5 ta taklifni berishim mumkin:

1. **Standartlashtirish va birlashtirish:**

- **Xalqaro standartlarga moslashish:** MCΦO (Xalqaro Moliyaviy Hisobot Standartlari)ga mos ravishda nomoddiy aktivlarni hisoblash va baholashning birlashgan tizimini joriy etish.

- **Milliy standartlarni takomillashtirish:** Milliy hisob standartlarini MCΦOga moslashtirish va nomoddiy aktivlarni hisoblash va baholash usullarini tartibga solish.

2. **Baholash usullarini takomillashtirish:**

- **Obyektiv baholash usullarini qo'llash:** Nomoddiy aktivlarni baholashda bozor qiymati, daromad usuli, xarajat usuli kabi aniq va ob'ektiv usullarni qo'llash.

- **Ichki baholash usullarini takomillashtirish:** Korxonaning ichki sharoitlari, resurslari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda, nomoddiy aktivlarni baholash usullarini takomillashtirish.

3. **Ma'lumotlar bazasini yaxshilash:**

- **Ma'lumotlar to'plash va tahlil qilishni tizimlashtirish:** Nomoddiy aktivlarni to'g'ri hisoblash uchun kerakli ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish tizimini yaratish.

- **Axborot tizimini takomillashtirish:** Korxonaning axborot tizimini takomillashtirish, nomoddiy aktivlar haqidagi ma'lumotlarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish imkoniyatlarini kengaytirish.

4. **Nomoddiy aktivlarga investitsiyalarni rag'batlantirish:**

- **Moliyaviy rag'batlar:** Nomoddiy aktivlarga investitsiya qilgan korxonalariga soliq imtiyozlari, grantlar va boshqa moliyaviy yordamlarni taqdim etish.

- **Texnologik yordam:** Nomoddiy aktivlarni rivojlantirish uchun ilmiy tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash, texnologiyalarni transfer qilish va innovatsiyalarni rag'batlantirish.

6. Jamoatchilikni xabardor qilish:

- **Nomoddiy aktivlarning ahamiyati to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish:** Nomoddiy aktivlarning iqtisodiy ahamiyati, rivojlanishdagi roli va ularni hisoblash muhimligi to'g'risida jamoatchilikni xabardor qilish.

- **Nomoddiy aktivlarga investitsiyalarni rag'batlantirish uchun ommaviy axborot kampaniyalarini olib borish.**

Ushbu takliflar nomoddiy aktivlar hisobini shakllantirish jarayonini takomillashtirishga, ularni baholash va boshqarishni yaxshilashga hissa qo'shadi. Bu esa o'z navbatida, korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga va raqobat bardoshligini oshirishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Leech, A. M. (2022). *Intangible Asset Valuation: A Practical Guide*. Routledge.

2. Teece, D. J. (2021). *Intangible Assets: Strategy for Economic Growth*. Cambridge University Press.

3. <https://bhms.uz/?p=330>

4. <https://lex.uz/mact/-627308>

5. ISMANOV, Ibroxim "Uzoq muddatli aktivlar hisobini takomillashtirish" monografiya; ilmiy nashr; "Classik", 2021. – 152 bet.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

